“Istiqlol davri tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumaniga taklif etamiz!

O’zbekiston Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Sizni 2021-yilning 15-sentyabr kuni O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining o’ttiz yilligi munosabati bilan tashkil etiladigan “Istiqlol davri tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folklorshunosligining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumaniga taklif etadi.

Anjuman quyidagi sho’balar bo’yicha ish olib boradi:

- o’zbek tilshunosligining nazariy masalalari;
- mumtoz adabiyot va matnshunoslik masalalari;
- o’zbek adabiyoti — tadqiq va talqin;
- adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid masalalari;
- adabiy aloqalar va tarjimashunoslik;
- folklorshunoslik masalalari.

Anjumanda amal qiluvchi til: o’zbek tili

Anjumanda ishtirok etish uchun quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim: Maqolalar 2021-yilning 1-sentyabriga qadar tashkiliy qo’mitaning elektron manziliga (anjuman2021@yandex.com) talablar asosida ishtirokchining anjumanga taqdim etayotgan ma’ruza nomi, ma’ruza matni va ishtirok etish shakli hamda sho’’basi aniq ko’rsatilgan holda yuborilishi lozim.

Hurmatli anjuman qatnashchilari, Sizlardan maqolalarni tayyorlashga qo’yiladigan talablarga diqqatingizni qaratishingiz so’rab qolamiz!

Anjumanda ishtirok etish uchun yuboriladigan anjuman materiallarining rasmiylashtirilish tartibi quyida keltiriladi:

Anjuman materiallari nashri:

Tanlab olingan materiallar “Istiqlol davri tilshunosligi, adabiyotshunosligi va folьklorining dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy anjumani materiallari to’plam sifatida PDF shaklda (elektron) tayyorlanadi.

Tashkiliy qo’mita materiallarni texnik tahrir qilish, shuningdek, maqola qabul qilinmaganda va qaytarilmaganda, bu bo’yicha izoh bermaslik huquqiga ega.

Maqolaga to’lov qilinganligi haqidagi kvitantsiyasining nusxasi ham biriktirilgan holda elektron manzilga (anjuman2021@yandex.com) yuboriladi.

Sizning elektron manzilingizga Tashkiliy qo’mita tomonidan maqolangiz qabul qilinganligi haqida xabar yubriladi, agar Sizga 3 kun oralig’ida bunday xabar yuborilmasa, u holda Tashkiliy qo’mita bilan qayta aloqaga chiqishingiz so’raladi.

Anjuman yakunida materiallar to’lami (PDF shaklda), sertifikat taqdim etiladi.

Maqolani tayyorlashga qo’yiladigan talablar:

Maqola hajmi – 7 betdan kam bo’lmasligi lozim.

- maqola matni doc. formatida, 1,5 intervalda, o’ng tomondan – 30 mm, chap tomondan – 15 mm, yuqori va pastdan – 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegl shriftda tayyorlanadi;
- maqola nomi 12 so’zdan ortmasligi;
- maqola annotatsiyasi maqola matnidan oldin berilishi lozim;
- annotatsiyadan so’ng kamida 5-7 ta kalit so’z keltirilishi shart;
- maqola matni kalit so’zlardan keyin ikki interval pastdan berilishi kerak.

Muallif haqida ma’lumotlar: Maqola nomidan 1 interval pastdan muallifning familiyasi, ismi va sharifi, ularning cheti – o’ng tomonida (*) havolasi ostida muallifning ilmiy darajasi, unvoni, tashkilot nomi va elektron manzili ko’rsatilishi lozim.

Havola va foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi: Manba havolasi to’rtburchak qavs ichida, manba muallifi familiyasi, nashr yili va sahifasi ko’rsatilgan tartibda beriladi.

- [Nurmonov, 2012: 56].
- foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati yuqorida qayd etilgan tartibda matnning so’nggida beriladi;

To’lov shartlari:

Anjuman materiallari to’plami PDF shaklida (elektron) chop etish uchun ishtirokchilar tomonidan maqolaning har bir sahifasi (sertifikat bilan) uchun 6 000 so’m miqdorida tashkiliy badal mablag’ini to’lashlari zarur.

MUROJAAT UChUN TAShKILIY QO’MITA: 100047, Toshkent sh., Yahyo G’ulomov ko’chasi 70 uy. Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va follori instituti.

Tel: (71) 233-67-28, mobil: +99897 768-97-98.

e-mail: anjuman2021@yandex.com Ismoilov G’ulom.

Ahmedova Aziza +99897 782-88-21

Imomnazarova Shahodatbonu +998 99 798-70-80

Allambergenov Anvar +99899 730-91-98